

**BO‘LAJAK TARBIYA FANI O‘QITUVCHILARIDA KREATIVLIK
SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI ULARNI ZAMONAVIY
PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH**

Yoqubaliyeva Dilafro‘z
Andijon davlat pedagogika instituti
Pedagogika va psixologiya kafedrası o‘qituvchisi
Norqobilov Diyorbek
Pedagogika fakulteti Pedagogika
yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarining kreativlik sifatlarini rivojlantirishning bir qancha usullari hamda uning qulay taraflari va hozirgi talaba yoshlarni ertangi pedagogik faoliyatga tayyorlashning eng tezkor usullar va metodlari haqida, shu bilan birga talabalarda kreativlikni rivojlantirish yo‘llari, ularni pedagogik faoliyatga tayyorlashda zamonaviy texnologiyalar va kreativlikni muvofiqlashtirishgan holda dars o‘tish yo‘llarini izlab topish bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: kreativlik, ijodkorlik, kreativ shaxs, ijodkor shaxs, ijod, kreativ qobiliyat, ijodiy qobiliyat, metod, pedagogik texnologiyalar, metodlar.

Hozirgi kunga kelib dars berish jarayonida ko‘plab o‘qituvchilar zamonaviy dars berish jarayonini o‘rganishlari qiyin bo‘lmoqda. Ular dars berish vaqtida eskicha oddiy dars jarayonidan foydalanishmoqda. Biz hozir bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarini ertangi pedagogik faoliyatga tayyorlashda zamon bilan hamnafas bo‘lgan holda ularni zamonaviy texnologiyalar bilan qurollantirish, kreativlik sharoitlarni yaratishimiz va ularga ta’lim berishning zamonaviy usullarini ishlab chiqishimiz kerak. o‘

Biz birinchi navbatda bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarida kreativlikni rivojlantirishimiz kerak. Buning uchun biz “kreativlik” tushunchasi nima ekanligini, uni qanday hollarda qo‘llanilishi va qanday amalga oshirish kerakligini o‘rgatishimiz va o‘rganishimiz kerak. Chunki pedagoglarda kreativlik sifatlarining bo‘lmasligi ularning ta’lim jarayonida talabalarni qancha g‘oya va qiziqarli ma’lumotlarga ega bo‘lmasin ularni qo‘llashi yoki ifodalay olishida anchagina qiyinchilik tug‘dirishi mumkin.

Kreativlik (lot, ing. “create”- yaratish, “creative”- yaratuvchi, ijodkor) - shaxsning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishi va ularni amaliyotda sinashda yangi yo‘llarni tarkib toptirish qobiliyati.

Demak, kreativlik bu yangidan yangi g‘oyalarni yaratishdir. Bu g‘oyalarni yaratishda faollik, tezkor fikrlash, o‘ziga xoslik (originallik) va takomillashganlik kabi asosiy xususiyatlarga ega bo‘lish kerak. Bunda har bir o‘quvchi kreativlik tushunchasini anglay olishi kerak. Ular o‘z kreativligini tashkil qilgan bir ishiga, qilgan mashg‘ulotlari va vazifalariga ijodiy yondashuvda aks ettirishadi. Demak har bir bo‘lajak pedagog o‘zida kreativlikni shakllantirish kerak. Bu esa pedagogik kreativlikni keltirib chiqaradi.

Pedagogik kreativlik. 1–pedagogning an’anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta’lim-tarbiya jarayonini samaradorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi yangi g‘oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muaommolarni ijobiy hal qilishga bo‘lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyatidir.

Demak, biz bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarida kreativlik sifatlarini oshirish yo‘llarni amalga oshirishimiz kerak. Kreativlik sifatlarini oshirish bo‘yicha pedagoglar ancha bosh qotirshiyapti. Patti Drepau shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning to‘rtta yo‘lini ko‘rsatadi:

Asosiy to’rtta yo’li :

- 1) kreativ fikrlash ko’nikmasini shakllantirish
- 2) Kreativ faoliyat jarayonlarini tashkil etish
- 3) Amaliy kreativ harakat ko’nikmalarini rivojlantirish
- 4) Kreativ mahsulot (ishlanma)lardan foydalanish

Bu yo’llarini mohiyatini tushinib olishimiz kerak.

1-yo’l: Kreativ fikrlash ko’nikmasini shakllantirish. Bunda o’quvchilarga ularni fikrlashga undovchi savollar va muammoli savollarda undagi savolni mantiqiga qaraladi. Agar mantiqiy savol beradigan bo’lsak uni mantiqiy murakkabligiga alohida e’tibor berishimiz kerak. O’quvchilar qanchalik murakkab savol bersak shunchalik ko’proq javob izlay boshlaydilar. Ko’nikmalari esa qancha murakkab savollarni yechgan sayin ko’payaveradi.

2-yo’l: Kreativ faoliyat jarayonlarni tashkil etish. Mazkur yo’l talabalarni muammoni yechish va innovatsion g’oyalarni ilgari surish jarayonida kreativ, ijodiy fikrlashga urg’u beradi. Bu jarayonlarda kreativ metod va usullar foal qo’llanmasada, bunda kreativ fikrlash yuz beradi. Bunda berilgan masala bo’yicha ko’p tomonlama fikrlash va mushohada yuritishlar ro’y beradi. Demak, bu yo’l o’quvchilarni muammo bo’yicha ko’p taraflama o’ylashga, ko’proq faoliyat olib borishga undaydi.

3-yo’l: Amaliy kreativ fikrlash ko’nikmalarini rivojlantirish. Ushbu yo’lda kreativ fikrlash ko’nikmalarini shakllantirish uchun ko’rsatmali, obrazli metodlar va usullardan foydalanadi. Bu o’rinda ular savollardan foydalansa talabalarda interfaollik va kirishimlikni rivojlantirmaydilar. Patti Drepa o’z asarida talaba yoshlarda interfaollik va kreativ fikrlash ko’nikmalarini rivojlantirishda samarali bo’lgan yo’l va metodlarni keltirib o’tadi:

- Veb saytlar bilan ishlash;
- Vizuallashtirish;
- Barcha nuqtai nazarlarni inobatga olish;
- Muhim g’oyalarni turli vaziyatlarda va o’rinli qo’llash ;
- “aqliy hujum”;
- “keys stadi ”kabi metodlarni aytib o’tib ketgan.

Bunda ko’proq ko’rsatmali va qiziqarli bo’lgan metodlardan foydalanish ancha foydaliroq bo’ladi

4-yo’l: kreativ mahsulot (ishlanma)lardan foydalanish. Ushbu yo’lda o’quvchilar ko’proq vositalardan va texnologiyalardan foydalanishlari nazarda tutilgan. Barcha mavzu va taqdimot ishlarini iloji boricha slayd yoki boshqa shakllarda tayyorlash. Barcha qo’llanmalardan foydalanish yoki bundan ham ko’proq vositalardan foydalanish kerak. Agar har bir dars va mashg’ulotlarni kerakli barcha vositalar bilan amalga oshirsalar o’quvchilarda qiziqishlar uyg’otadi. Bu esa darsni samarali o’tishni ta’minlaydi.

Bu yo’llar orqali talabalar ertangi pedagogik faoliyatda kreativlikni judayam yaxshi darajada foydalanadilar. Ular qanchalik dars mashg’ulotlarini kreativlik asosida tashkil etsalar shunchalik ijobiy natija vujudga keladi. Bunda esa kreativlik bilan zamonaviy pedagogik texnologiyalardan ham foydalanish maqsadga muvofiqdir. Hozirgi zamonaviy texnologiyalar, metod va interfaol usullardan foydalanish hozirgi zamonaviy pedagogik faoliyatga mos ravishda amalga oshirilmoqda. Buning uchun albatta talabalarda kreativlik bilan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni uzviy bog’lagan xolda rivojlantirishimiz kerak. Bo’lajak tarbiya fani o’qituvchilarida kreativlikni shakllantirishni bir qancha uslublari mavjud. Bular:

- Qiziqarli;
- Murakkab vazifalar yuklash;

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

- Aniq maqsad va vaqt bilan ta’minlash;
- Suhbatlar orqali rag’batlantirish;
- Konstruktiv sharhlar bilan ta’minlash;
- Yangi ko’rsatmalar bilan tanishtirib borish;

Bu jarayonlarda bo’lajak tarbiya fani o’qituvchilariga aniq bir maqsad va vaqt belgilagan holda murakkab vazifalar yuklansa ularni shunchalik aniq tartib orqali vazifalarni bajarishiga ijobiy ta’sir ko’rsatadilar. Ular bu orqali o’z mas’uliyatini his qilgan holda o’zlarini ushbu vazifa va topshiriqlarga jiddiy tarzda yondashadilar. Ularni qilgan ishlarini suhbatlar bilan rag’batlantirish va konstruktiv sharhlar bilan xulosalarni berishimiz kerak. Bo’lajak tarbiya fani o’qituvchilarida o’z xato va kamchiliklarini ushbu uslub orqali bilib oladilar va ularni to’g’irlashga harakat qiladilar. Biz bu ishlari uchun xulosalarni ijobiy tarzda berishimiz o’z xatolari ustida ko’proq ishlarini ularga yetkazishimiz kerak, shu bilan birga yangi ko’rsatmalar berishimiz kerak bo’ladi. Bundan so’ng biz talabalarga:

- Bezovtalik va qo’rquv hissidan halos bo’lishiga yordam berishimiz ;
- Kreativ fikrlash ko’nikmalarini boshqa ko’nikmalar bilan birgalikda rivojlantirishga yordam berish

- Ularni bu yo’lda qutqarib qolishimiz emas balki, yo’l yo’riqlar orqali ularni qo’llab-quvvatlashimiz kerak;

Talabalar bu holatda :

- O’zlarida kreativlikning boshqa turlarini ham rivojlantira olishlari ;
- Guruhda ishlay olishlari ;
- Hissiy jihatdan erkin va ijobiy fikrlarga ega bo’lishlari uchun poydevor bo’ladigan muhitni yaratishlari kerak.

Shuningdek, bo’lajak tarbiya fani o’qituvchilarida kreativ fikrlash ko’nikmalarini rivojlantirishda o’qituvchilarni o’rni ham juda katta. Har bir o’qituvchi auditoriyada talabalar uchun kreativlik muhitini yaratib berishlari kerak. Bu muhit shunday yaratilishi kerakki unda talabalar o’zlarini erkin seza olishlari, o’z fikrlarini mustaqil bayon eta olishlari, o’z g’oyalari bilan bo’lisha olishlari kerak. Ushbu muhitda o’qituvchi-talaba munosabatlari muhim o’rinni egallaydi. Bo’lajak tarbiya fani o’qituvchilar o’z faoliyatini amalga oshiryaptilarmi o’qituvchi ularni zimdan kuzatgan holda ularga savollar bilan murojaat qilishi ularni ma’lumotlari haqida tushunchalar olib turishi kerak.

Biz esa zamonaviy texnologik vositalar yordamida ularni qiziqishlarini uyg’otishimiz, kreativlik asosida esa ulardan mohirona foydalanib, pedagogik faoliyatni samarali tarzda amalga oshirishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.Usmonboyeva, A.To’rayev. Kreativ pedagogika asoslar. T.: 2016
2. To’xtaxodjayeva M., Nishonova S. “pedagogika” 1-qism Toshkent,
3. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. T.: Sano-standart,2010.
4. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 –yil 8-oktyabr “O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida ” gi PF-5847-son Farmoni
5. Karimova Barno Ergashevna “Kreativ pedagogika”